

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI
YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI FAKULTETI**

Himoyaga ruxsat etildi
Fakultet dekani, dotsent
_____ U.Meliboyev
« ____ » _____ 2016 y.

Kafedira mudiri, dotsent
_____ X. Parpiev
« ____ » _____ 2016 y.

5320900 -"Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi"

(to'qimachilik sanoati) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchisi

Abdurahimov Islomjon Yo'ldoshali o'g'li

**“Mitkal” matosini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini
ta'minlashning texnik va texnologik yechimlari mavzusida**

BITIRUV MALAKA ISHI

Bitiruvchi:

I.Abdurahimov

Rahbar :

B.Abdurahimov

Maslahatchilar:

B.Abdurahimov

Kat.o`q. A.Akramov

NAMANGAN 2016 YIL

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI FAKULTETI

«To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi» kafedrası

«TASDIQLAYMAN»

Kafedra mudiri, dotsent

_____ I. Azizov

«___» _____ 2016 yil

«To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi» ta'lim yo'nalishi

4bu-12 guruxi talabasi; Abdurahimov Islomjon Yo'ldoshali o'g'li

BITIRUV MALAKA ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

1.Bitiruv malaka ishining mavzusi: “Mitkal” matosini ishlab chiqarish
ko'rsatkichlarini ta'minlashning texnik va texnologik yechimlari

«___» _____ 2016 yilda kafedra majlisida ma'qullangan.

Bitiruv malaka ishini topshirish muddati; «___» _____ 2016 yil

2.Bitiruv malaka ishini bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar

To'qimani to'la taxtlash ko'rsatkichlari

3.Hisoblash-tushuntirish yozuvlarning tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar)

Kirish

Texnologik qism

Mehnat muxofazasi

Tashkiliy-iqtisodiy qism

Xulosa va tavsiyalar

4.CHizma ishlar ro'yxati (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi).

Texnologik jarayondagi jihozlar

Texnologik jixozlarni joylashtirish.

O'ram xisobini jadvali.

Chiqindilar chiqish jadvali.

Korxonaning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

5.Bitiruv malaka ishi bo'yicha maslahatchi(lar)

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi F.i.sh.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1	Kirish	B.Abdurahimov		
2	Texnologik qism	B.Abdurahimov		
3	Mehnat muxofazasi	A.Akramov		
4	Tashkiliy-iqtisodiy qism	B.Abdurahimov		
5	Xulosa va tavsiyalar	B.Abdurahimov		

topshiriqlar to'liq bajarildi _____

6. Bitiruv malaka ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
1	Kirish	dekabr 2015 y	
2	Texnologik qism	mart 2016 y.	
3	Mehnat muxofazasi	may 2016 y	
4	Tashkiliy-iqtisodiy qism	may 2016 y	
5	Xulosa va tavsiyalar	may 2016 y	

Bitiruv malaka ishi rahbari

(familiyasi, ismi, sharifi)

(imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim

(familiyasi, ismi, sharifi)

(imzo)

Topshiriq berilgan sana

« ____ » _____

2015 yil

Himoyaga ruxsat berildi

« ____ » _____

2016 yil

Kafedra mudiri

(familiyasi, ismi, sharifi)

(imzo)

Mundarija

Kirish.....	5
I Bo'lim. Ip gazlamali matolarni assortimentini kengaytirish	
1.1. Ip gazlamalarning assortimentini tavsiflash takomillashtirish.....	9
1.2. Ko'ylakbop ip gazlamalar ishlab chiqarishni takomillashtirilishi.....	11
1.3. Ip gazlamalar uchun hom ashyo turlarini tanlash mezonlari.....	12
II Bo'lim. "Mitkal" matosini tuzilishi va xossalarini ta'minlash.	
2.1. "Mitkal" matosini texnik va istemol hossalari.....	14
2.2. Mato tuzilishi va xossalarini tadqiq etish.....	16
2.3. Mato chiqarish ko'rsatkichlarini belgilash asoslari.....	19
2.4. To'qimaning texnik ko'rsatkichlari.....	20
III. Bo'lim. "Mitkal" mato to'qish uchun texnik va texnologik hisobi.	
3.1. To'quv dastgohini turini tanlash.....	21
3.2. To'quv dastgohini ishchi kengligini tanlash va asoslash.....	23
3.3. To'qimani taxtlash hisobi.....	24
3.4. 100 metr hom to'qima to'qish uchun iplar sarfi.....	27
3.5. To'qimani taxtlash hisobini jamlash jadvali.....	28
3.6. Ishlab chiqarish texnologik jihozlarni tanlash.....	30
3.7. Ip o'ramlarini xisoblash va asoslash.....	40
3.8. To'quv korxonalarida chiqadigan chiqindilarni hisoblash.....	48
3.9. 100 metr hom to'qima to'qish uchun iplar sarfi.....	52
3.10. Tandalash mashinasining ish unumdorligi hisobi.....	53
3.11. Tayyorlov bo'limi mashina dastgoxlari muvofiqligini umumlashgan jadvali.....	58
3.12. Xom ashyo ombori hisobi.....	58
IV Bo'lim Mehnat muhofazasi.	
4.1. Ishlab chiqarish sehtaridan ajralib chiqadigan zararli moddalarni kamaytirish yo'llari.....	63
4.2. Havodagi changlarni o'lchash yo'llari.....	67
V Bo'lim. Tashkiliy iqtisodiy qism.	
5.1. Ishlab chiqarishning o'timlar bo'yicha chiqindini taqsimlanishi.....	69
5.2. Xom ashyo balansi.....	70
5.3. Korxonada ishchilar sonini aniqlash.....	71
5.4. Tugallanmagan ishlab chiqarish.....	73
5.5. Elektr energiyasi hisobi.....	76
5.6. Korxonaning tashkiliy texnologik ko'rsatkichlari.....	78
Umumiy hulosalar va tavsiyalar.....	80
Foydalanilgan adabiyotlar.....	82
Ilova.....	83

Kirish

Yengil sanoat zamonaviy bozor sharoitida iqtisodiyot yuksalishini, mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligini ta'minlash va hayot darajasini oshirishda muhim o'rin tutadi. Jahonda paxta tolasini ishlab chiqarishda yetakchi o'rinlardan birini egallab turgan O'zbekiston tashqi bozorga xom ashyo o'rniga yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor to'qimachilik mahsulotlarini yetkazib bermoqda.

«O'zbekyengilsanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiradigan 280 korxonada ip, gazlama, tikuvchilik, tikuvchilik-trikotaj, paypoq kabi xilma-xil mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Ular orasida dunyoning yetakchi mamlakatlaridagi xorijiy hamkorlar ishtirokida tashkil qilingan qo'shma korxonalar ham ko'p.

«O'zbekyengilsanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasi mutaxassislarining ta'kidlashicha, mamlakatimizda samarali me'yoriy-huquqiy baza yaratilgani yengil sanoatni jadal rivojlantirishda muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Janubiy Koreyalik investorlar bilan tuzilgan ikki tomonlama hamkorlik doirasida to'qimachilik komplekslarini qurish va faoliyat ko'rsatayotganlarini modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish davom etmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, yengil sanoatni xorijiy investitsiya hisobidan jadal rivojlantirish eksport salohiyatini oshirish va yetkazib berish ko'lamini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan to'qimachilik mahsulotlari O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi ko'magida bugun Braziliya, Bangladesh, Indoneziya, Peru, Chili, Kolumbiya, Fransiya va boshqa davlatlarga eksport qilinmoqda. Natijada o'tgan yili eksport qilingan mahsulotlar umumiy xajmida tayyor mahsulot ulushi 35 foizni tashkil yetdi va bu 2011-yilga nisbatan 25 foizga ko'pdir.

«O'zbekyengilsanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasidan ma'lum qilishlaricha, mamlakatimiz to'qimachilik korxonalarining xalqaro yarmarka va ko'rgazmalarda ishtirok etayotgani chet ellik hamkorlar bilan hamkorlikni faollashtirish hamda yangi bozorlar topishning samarali mexanizmlaridan biridir. Bu korxonalar Osiyo va Yevropa mamlakatlarida bo'lib o'tgan ixtisoslashtirilgan forumlarda o'z mahsulotlarini bir necha marta namoyish yetdi. Buning natijasida Yevropa ittifoqi va Markaziy Osiyo mamlakatlarida 55 dilerlik tuzilmasi tashkil qilindi. Keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida barqaror yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanmoqda. Xususan, uning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblangan sanoat jadal rivojlanayapti. 2015 yil yakunlariga ko'ra, mazkur jabhada ishlab chiqarish hajmi 8,3 foiz o'sgani, ularning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulotlar tashkil etgani ana shundan dalolat beradi. Bu istiqbolning dastlabki yillaridan boshlab, ichki bozorni o'zimizning mahsulotlar bilan to'ldirish, horijga tayyor mahsulotlar yetkazib berish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasidir.

Sanoat salohiyatining yuksalib, eksport hajmining o'sishida, ayniqsa, to'qimachilik va tikuvchilik sanoatining ulushi salmoqlidir. O'tgan yili ushbu tizimdagi 40 ga yaqin yangi korhona eksport faoliyatiga jalb etilib, eksportchi korhonalarning umumiy soni 250 taga yetdi. Ular tomonidan chet ellik buyurtmachilarga 1 milliard AQSH dollarlik mahsulot yetkazib berildi.

Bugungi kunda respublikamizda 2700 dan ortiq (mikrofimalardan tashqari) yengil sanoat korhonasi ro'yhatga olingan bo'lib, shundan 310 ga yaqini «O'zbekyengilsanoat» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tizimida birlashgan. Ularda uzluksiz ravishda texnik va texnologik yangilash, modernizatsiyalash loyihalari amalga oshirilayotgani, shuningdek, yangi quvvatlarning ishga tushirilayotgani muvaffaqiyatlar omili bo'lmoqda. Zotan, ishlab chiqarishni zamon talabiga moslashtirmasdan turib, jahon bozorida raqobatlasha oladigan, haridor e'tiborini qozonadigan mahsulotlar tayyorlashning iloji yo'q. Shu bois, soha ravnaqi uchun investisiyalar jalb etilayotir.

2015 yilgi Investisiya dasturi doirasida, masalan, umumiy qiymati 165 million AQSH dollarilik 33 ta loyiha amalga oshirilishi tufayli ko'plab yangi korxonalar foydalanishga topshirildi, mavjudlari modernizatsiya qilindi. Bu korxonalar hisobiga qo'shimcha ravishda yiliga 34,55 ming tonna kalava ip, 20,36 million kvadrat metr gazlama, 5 ming tonna trikotaj mato, 2 million juft paypoq, 9,58 million dona kiyim-kechak ishlab chiqarish imkoniyati vujudga keldi. Natijada o'tgan yili kompaniya tizimida sanoat mahsulotlari tayyorlash hajmi 23 foiz, xalq iste'mollari ishlab chiqarish hajmi esa 33,1 foiz o'sdi.

Ta'kidlash kerakki, sohada investitsiyaviy loyihalarni hayotga tatbiq qilish ishlari joriy yilda ham jadal davom ettirilayapti. 2010 yil 15 dekabrda qabul qilingan "2011 - 2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarorga muvofiq, 2015 yilda 173 million dollar miqdorida investitsiya jalb etilgach, bugungi kunga qadar 35 ta loyiha to'liq o'zlashtirildi, qolgan 20 ta loyiha ustida esa ishlar qizg'in bormoqda. Bundan ko'zlangan maqsad bitta: u ham bo'lsa, halqaro standartlarga to'la javob beradigan mahsulotlar tayyorlashni ko'paytirishdir [1].

Talab va taklif uyg'unligi:

Raqobat kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda jahon bozoridan mustahkam joy egallash oson emas. Negaki, mavjud talab, mijozlar xohishi inobatga olinmasa, tayyorlangan mahsulotlar omborlarda qolib ketishi hech gap emas. Shu bois, kompaniya mutaxassislari tomonidan bozordagi talab va taklif o'rganilgan holda, ishlab chiqarish tez-tez yangilanib borilmoqda. Misol uchun, o'tgan yili 55 turdagi yangi mahsulot tayyorlash o'zlashtirildi. Bundan tashqari, kanopli, chodirbop va boshqa texnik gazlamalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib, 35 million kvadrat metr ana shunday mahsulot tayyorlandi, tikuvchilik hamda trikotaj liboslarining yuzga yaqin modeli yaratildi. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan yengil sanoat mahsulotlariga horijda talab har doim yuqori bo'lgan, buning bir necha sabablari bor, albatta. Chunki ular, eng avvalo, tabiiyligi, ya'ni sof paxta tolasidan tayyorlangani, qolaversa, sifatining yuqoriligi bilan bimalol raqobatga kirisha

oladi. Shuning uchun global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida ham eksport ko'rsatkichlarimiz deyarli pasaymayapti. Aksincha, yangi bozor yo'laklari ochilmoqda. Poytaxtimizda an'anaviy ravishda o'tkazib kelinayotgan Xalqaro O'zbekiston paxta va to'qimachilik yarmarkasi esa yangi hamkorlar topish, mahsulotlarni chet ellik xaridorlarga kengroq targ'ib qilish imkonini bermoqda. Shu o'rinda aytish joizki, yengil sanoat korhonalarida halqaro standartlarga muvofiq, sifat menejmenti qo'llanilayotgani horijlik buyurtmachilarning qiziqishini yanada oshirmoqda. Bugungi kunga qadar kompaniya tizimidagi 160 ga yaqin korhonalarda ISO-9001 sifat sertifikatini joriy etilgani e'tiborga molik. Pirovardida mahsulotimizni import qiluvchi mamlakatlar safi yil sayin kengayib, qariyb 55 taga yetdi. Ular orasida, jumladan, Evropa Ittifoqi va Hamdo'stlik Davlatlari, Janubiy Koreya, Xitoy, Hindiston, Birlashgan Arab Amirliklari kabi mamlakatlar bor.

Ayni paytda mamlakatimiz to'qimachilik sanoatining 160 korxona va kompaniyasi IX Xalqaro O'zbekiston paxta va to'qimachilik yarmarkasida ishtirok etishga hozirlik ko'rmoqda. "Sharq liboslari" dizayn markazi zamonaviy liboslar modellarini alohida stendda namoyish etadi. Muxtasar aytganda, yarmarka har doimgidek, muzokaralar o'tkazish, ishbilarmonlik aloqalarini mustahkamlash va O'zbekiston yengil sanoatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

I. BO'LIM

IP GAZLAMALI MATOLARNI ASSORTIMENTINI KENGAYTIRISH.

1.1. Ip gazlamalarning assortimentini tavsiflash takomillashtirish.

To'quvchilik gazlamalarining turlari assortiment so'zi bilan belgilanadi. Assortiment so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, «kompleks» yoki «to'plam» degan ma'noni anglatadi.

Ishlab chiqarish usuliga ko'ra to'quvchilik gazlamalari gazlamalar, trikotaj, noto'qima va boshqa gazlamalarga bo'linadi. Bularning ichida ip gazlamalar eng ko'p ishlab chiqariladi.

To'quv korxonalarida ishlab chiqarilayotgan gazlamalar ichida ip gazlamalari muhim o'rin tutadi. Ularning asosiy qismini paxta tolasidan ishlab chiqarilgan turlari tashkil qiladi.

Ip gazlamalari karda, qayta tarash va apparat yigirish tizimida yigirilgan chiziqli zichligi 5,88 dan 263,2 teksgacha bo'lgan iplardan ishlab chiqariladi.

Ip gazlamalari turli xil rangda, shaklda va o'lchamda gul bosilgan, oqartirilgan, chipor va oqartirilmagan xom xolda ishlab chiqariladi. So'ngra pardozlash jarayoni amalga oshiriladi.

Ip gazlamalardan ichki kiyim, erkarlar, ayollar va bolalar kiyimliklari, kundalik, maxsus va sport kiyimliklari, astarlik, pardalik va xokozolar sifatida foydalaniladi. Ip gazlamalarni tashqi ko'rinishi chiroyli, mustaxkamligi, turli deformasiyalar ta'siriga chidamli, oson yuviladi, tez quriydi, yaxshi dazmolanadi. To'quvchilik buyumlarini tayyorlashda deyarli qiyinchilik tug'dirmaydi. Bichish to'shamiga yaxshi taxlanadi, siljuvchanligi kam, bichish jarayonida surilmaydi, qirqilgan joyidan iplari to'kilmaydi, tikish paytida iplari ignalari bilan shikaslanmaydi, choklar yonidagi iplari siljimaydi. Ammo ip gazlamalari ko'p g'ijimlanadi, ishqalanishga chidamligi kam yuvganda kirishmaydi. Mana shu

xususiyatlarini yaxshilash uchun ip gazlamalari paxta va sintetik tolalar aralashmasidan ishlab chiqariladi .

Texnik shartlarga muvofiq ishlab chiqarilgan mustaqil gazlama turi artikul deb ataladi. Artikul raqamlar bilan belgilanadi. U biror gazlamaning preyskurant-dagi shartli tartib nomerini bildiradi.

Gazlamaning nomi bir xil, lekin artikuli har xil bo`lishi mumkin. Masalan, chitning 9 artikuli, ip gazlama trikning 35 artikuli, satinning 30 artikuli bor va hokazo. Nomi bir xil, lekin artikuli turlicha bo`lgan gazlamalar bir-biridan biror ko`rsatkichi – eni, ogirligi, zichligi, ba`zan o`rilishi bilan farq qiladi.

Preyskurant - gazlamalarning chakana narxlari to`plami. Unda gazlamaning nomi, artikuli, eni, chakana narxi, gazlama ishlab chiqariladigan GOST yoki TU, gazlamaning standart yoki TU dan olingan texnik ko`rsatkichlari (1 m gazlamaning massasi, tanda va arkoq iplarining nomeri, tanda va arkoq bo`yicha zichligi, jun gazlamalardagi junning miqdori), gazlamalar guruxining nomeri ko`rsatiladi. Gazlamalarning mavjud assortimenti doimo o`zgarib turadi. Modadan qolgan, iste`molchidan chiqqan, eski artikullardagi gazlamalarni ishlab chiqarish to`xtatiladi. Tola tarkibi, tuzilish, pardozi va xossalari jixatidan yangi gazlamalar yaratish xisobiga assortiment yangilanib boradi.

Shu bilan birga, muayyan artikullardagi ko`pgina gazlamalar bir necha un yil mobaynida ishlab chiqariladi. Masalan, chit, satin, buz, mitkal, madapolam, kashemir, poplin shular jumlasidandir.

Hozirda 1300 dan ortiq artikuldagi ip gazlamalar mavjud bo`lib ular 17 guruxga ajratilgan. Bulardan eng ko`p 6 ta gurux ishlatiladi.

Birinchi gurux – klassik ip gazlamalar.

Ikkinchi grux- srup gazlamalari- chitga nisbatan dag`alroq, yuza zichligi 124-160 g/m<sup>2</sup>, polotno o`rilishiga sidirg`a rangli va gul bosilgan xolda ishlab chiqariluvchi ip gazlama.

Uchinchi grux- choyshabbop gazlamalar.

CHoyshabbop sruplar oddiy sruplardan o'zining pardozi bilan farqlanib, oqartirilgan xolda ishlab chiqariladi va choyshabbop, tibbiyot xodimlari va oziq-ovqat savdosi bilan shug'ulanuvchilarning maxsus kiyimlari uchun ishlatiladi.

Maxsus gruxga «grinsbon» va «tik-lastik» nomli oqartirilgan gazlamalar kiradi.

To'rtinchi grux –satin o'rilishdagi satin gazlamalari kiradi. Satin gazlamalarida arqoq yo'nalishdagi zichligi va to'ldirishi tanda yo'nalishdagiga nisbatan ikki marotaba ko'p. SHuning uchun ularning sirti siliq, o'ng tomoni yaltiroq bo'ladi.

Beshinchi grux- ko'ylakbop gazlamalar kiradi.

Yozgi gazlamalar jumlasida yupka, yengil, xavo o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan batist, markizet, mayi, volta, vual, kiseya gazlamalar kiradi.

1.2. Ko'ylakbop ip gazlamalar ishlab chiqarishni takomillashtirilishi.

Biz shuni takidlashimiz mumkinki erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida to'qimachilik korxonalari oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri sifatli raqobatbardosh va haridorgir gazlamalar ishlab chiqarishdan iborat. Ko'ylakbop ip gazlamalar ishlab chiqarishni takomillashtirish ham shunga majbur qiladi, boisi kundan kunga yangi gazlamalar ularning turlari va korinishlari hayratlanarli tarzda o'zgarib bormoqda shuning uchun ip gazlamalarni haridorgir, sifatli ishlab chiqarish uchun yangi texnika va texnologiyalardan foydalanilsa albatta tegishli natijalarga erishiladi. Zamonaviy dastgohlar texnika yutuqlaridan va yana yangi ish uslublari ishlab chiqarishni ancha takomillashishiga turtki boladi. Biz bilamiski ko'ylakbop ip gazlamalarga bolgan talab tobora oship bormoqda shuning uchun ham ishlab chiqarishni takomillashtirish zarur.

Ip gazlamalar maishiy va tehnik hillarga bo'linadi. Maishiy ip gazlamalar assortimentining katta qismini tashkil qiladi.

Maishiy ip gazlamalar rangi, tuzilishi jihatidan turli-tuman bo'lib, kuylaklar, bluzkalar, yubkalar, shimlar, kastyumlar, sarafanlar, pal'to, yarim pal'to, sport kiyimlari, mahsus kiyimlar, gimnastyorkalar, telogreykalar va boshqa buyumlar tayyorlashda keng ishlatiladi.

Ip gazlamalar to'qishda to'quvchilik o'rilishlarining barcha sinflari qo'llaniladi.

Bo'yalishi jihatidan ip gazlamalar hom, oqartirilgan, sidirg'a, melanj, mulinirlangan, guldor va gul bosilgan hillarga bo'linadi. Yuvilib ketmaydigan appertli, g'ijimlanmaydigan va kirishmaydigan qilib pardoizlangan ip gazlamalar ishlab chiqarish yildan yilga ko'paymoqda.

Savdo preyskuranti bo'yicha ip gazlamalar 17 gruppaga: chitlar, bo'zlar, ich kiyimlik gazlamalar, satinlar, kuylaklik, kiyimlik va hakazo gazlamalarga bo'linadi. Masalan ich kiyimlik gazlamalarning bo'z, mitkal va mahsus hillari bor. Kuylaklik gazlamalar yozgi, qishki, mavsumbop va kimyoviy kompleks iplar qo'shib to'qilgan gazlamalarga bo'linadi.

Ip gazlamalar assortimenti quyidagi yo'nalishlarda rivojlanmoqda:

shaklini yaxshi saqlaydigan gazlamalar (bo'z va poplin tipidagi tekis, silliq sirtli yengil gazlamalar) hamda klassik o'rilishli gazlamalar (bir tomoniga tuk chiqarilgan tekis yoki g'adur-budur sirtli gazlamalar) yaratish;

plastik gazlamalar- mahrli, mayin va yengil gazlamalar, mayin chiyduhobalar yaratish. Yangi strukturali gazlamalar (dokaga o'hshash, nafis, jakkard, shakldor chiyduhobalar) ishlab chiqarish, kolorit, naqsh, turli pardoiz hillarini o'zgartirish hisobiga ip gazlamalar assortimenti o'zgartirilib turiladi. Zarhalli, kashtali va shu kabi yangi gazlamalar ishlab chiqarilmoqda.

Ip gazlamalarda viskoza va sintetik kompleks iplar qo'llash, shtapel sintetik tolalar qo'shish hisobiga ham assortiment yangilanmoqda. Bunday gazlamalarni ip gazlama sanoati ishlab chiqaradi, lekin ular shoyi gazlamalar preyskurantiga kiritilgan.

Ip gazlamalarning texnologik hossalari ularning tuzilishiga bog'liq.

Ishlatiladigan kalava ipning hiliga qarab ip gazlamalar quyidagi hillarga bo'linadi: qayta tarash usulida yigirilgan kalava ipdan to'qilgan ip gazlama; turli usulda yigirilgan iplarni qo'shib, karda-qayta tarash va karda apparat usullarida to'qilgan gazlamalar.

Kiyimlik gazlamalar gruppasiga kastyumlar, plashlar, kurtkalar, pal'to, mahsus kiyimlar tikish uchun mo'ljallangan gazlamalar kiradi. Kiyimlik gazlamalar nisbiy zichligi 60 dan 100% gacha va bundan yuqori bo'lgan karda kalava ipi va qayta tarash usulida yigirilgan kalava ipidan to'qiladi; 1m² gazlamaning massasi 250-300 g.

1.3. Ip gazlamalar uchun hom ashyo turlarini tanlash mezonlari.

Tolalardan ip hosil qilish ketma-ketligini yigirish sistemasi deb atash qabul qilingan. Bunda yigirish sistemasi tushunchasi faqat jarayonlar ketma-ketliginigina emas, balki texnologik jihozlar ro'yhatig'a yigirish korxonalarida qabul qilinish tartibini ham o'z ichiga oladi.

Tabiiy va kimyoviy tolalardan ip yigirishning quyidagi asosiy sistemalari mavjud: oddiy (karda), qayta tarash va apparat sistemalari. Bu sistemalar asosan ikkita belgilovchi alomatlar - tarash usuli va mahsulotni ingichkalashtirish usullari bilan farqlanadi.

Ip gazlamalari uchun hom ashyo turlarini tanlash uchun avval qanday mato ishlapchiqarilishiga, uni hossalriga, nima maqsadda ishlatilishiga qarab hom ashyo tanlanadi. Ip gazlamalari uchun asosiy hom ashyo bu pahta tolasidan yigirilgan iplar bolip, bu iplar asosiy hom ashyo vazifasini bajaradi. Pahta tolalali iplardan to'qilgan matolarni mustahkamligini, hossalarni yanaham yahshilash maqsadida har-hil tolali aralashmadan yigirilgan iplardan yoki har-hil iplardan mato olip istemol uchun qulay va chidamli, chiroyli matolar olish mumkin. Mitkal to'qimasi uchun 100% pahta tolasidan yigirilgan iplar olindi. Bu matoni mayin va

yoqimli oddiyligi va ekologiyaviyligni, odam tanasiga yoqimli bo'lishi va botmasligini ta'minlaydi.

Agar pahta tolasining yahshi so'rt va tiplaridan foydalanib yigirilgan iplardan mato ishlab chiqarilsa u boshqa materiallar bilan bemaol bellashaoladigan mato tayyor boladi. Pardoqlash jarayonida ham biz hohlagan ranglarni unda chiqarish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Matoimiz sifatli va haridorgir bo'ladi.

II. BO'LIM

“MITKAL” MATOSINI TUZILISHI VA XOSSALARINI TA'MINLASH.

2.1. “Mitkal“ matosini texnik va istemol hossalari.

Mitkal matosining texnik va istemol hossalari. Bu guruhdagi korsatkishlar toqimaning narhi bilan belgilanadi (material sigimi, polotno eni va boshqalar). Bazi bir tasniflashda ergonomik sifat ko'rsatkichlari mahsus ajratiladi. GOST 16035-70 standarti boyicha bu guruh buyumning gigiyenik antropometrik, fizialogik, psixalogik va psihofiziologik sifat korsatkichlarini birlashtiradi. Bularning barchasi inson faoliyatida boshqa buyumlar bilan o'zaro ta'siridagi samarasidir, masalan: inson buyum atrof muhit tizimidagi ishlab chiqish samaradorligi, ishonchliligi, qulayliligini belgilaydi.

Mitkal guruxiga kiruvchi choyshoplik gazlamalar xom xolda mitkal deb ataladi. Tuzilishi chitga o'xshash. Mitkal asosida mayin pardoqlangan xolda (appret mikdori 1,5 %dan kam) muslin, appret miqdori 1,5-2,5% bo'lsa, mitkal, appret miqdori 2,5-3% dan ohsa madapolat nomli gazlamalar olinadi. Bu guruxga kiruvchi gazlamalar choyshoblik srupdan yupqa, yuza zichligi 45-110 g/m², eni 75-150sm gacha bo'ladi. Tanda va arqoq iplarning yo'g'onligi 11,8-20,0 teks. Bu gazlamalar polotno o'rilishida to'qiladi. Oqartirilgan yoki ochiq rangda sidirg'a qilib pardoqlanadi. Muslin gazlamasidan tungi ko'ylak, mitkal va madapolatdan choyshaplar tayyorlanadi. Bu gazlamalar uchun qayta tarash usulida yigirilgan iplar ishlatiladi. SHu sababli yupqa va mayin.

Mitkal artikuli-36 toqimasining eni 108 mm bo'lib, bu matoga pnevmomehanik yigirish tizimi asosida tanda va arqoq iplari 20 teksli ip ishlatilgan. Ushbu to'qimada iplar soni hammasi bo'lib 2706 shundan qirg'og'iga 56 ta ip to'g'ri keladi. 10 sm dagi iplar soni tanda bo'yicha 248 dona, arqoq boyicha 225 dona iplar soni to'g'ri keladi. Iplarni qisqarishi esa tanda boyicha 6 % ni, arqoq boyicha 8.2 %ni tashkil qiladi. O'rinish turi polotno, toqimani yuza zichligi 103 Gr/m² ni tashqil qiladi.

Mitkal pahta tolali mato bo'lip u polotno orilishi yordamida to'qiladi. Ushbu mato byaz matosiga nisbatan ancha yupqa holda tayyorlanadi. Mitkal matosining iplari eshilgan yoki to'g'ri holatta bo'lishi mumkin, bu bilan mato istemol hossalari yahshilanadi, yoqimli va mustahkam bo'lip oqish hira rangda boladi. Mitkaldan tayyorlangan choyshaplar yuvishga chidamli bolip yuvish jarayonini yahshi o'tkazadi bu bilan o'zini tashqi ko'rinishini uzoq muddat saqlab qoladi. Mitkal matosining strukturasi yupqava yetarlicha mustahkam iplarning kressimon holda to'qilganidir. Ushbu mato byaz kabi alohida parvarishlarni talab etmaydi va kop sonli yuvishlarga chidamli. Byaz bilan bir hil tehnologik ko'rsatkichlar bo'yicha mitkal solishtirilganda bu mato ancha yupqa bo'lip mustahkamligini yuqoriligi ko'rsatadi. Mitkalni hozirda ham bundan 100 yil oldin tayyorlangani kabi ishlab chiqariladi. Mitkaldan tayyorlangan barcha pahtali matolar quyidagi foydali ko'rsatkichlarga ega;

1. Gigraskopikligi- bu matoni namlikka chidamliligi.
2. oddiyli va ekologiyaviyligi.
3. O'zidan havoni yahshi otkazuvchanligi.
4. Odam tanasiga yoqishi va botmasligida.
5. Havsizligi va gippoallerginligi.

Mitkalni bo'yalmagan iplardan tayyorlanib undan undan so'ng ishlov berilganidan keyin undan siteks, muslin va modopolan kabi materiallar tayyorlanadi. Bazi hollarda undan dormantin tayyorlanadi va mebillarni qoplashda ham foydalaniladi.

2.2. Mato tuzilishi va xossalarini tadqiq etish.

Mato tola tarkibini to'g'ri aniqlash juda muhim ahamiyatga ega. Mato tola tarkibi modellash, loyihalash, bichish va tikishda hisobga olinishi lozim.

Gazlama o'zaro perpendikulyar iplar tizimining orilishidan hosil boladigan tikuvchilik buyumi. Gazlamada uzinasiga yotadigan iplar tanda tizimi yoki tanda, ko'ndalang yotadigan iplar esa arqoq tizimi yoki arqoq deyiladi.

Tikuvchilik gazlamalarining tuzilishi

Matolarning tashqi ko'rinishi, qayishqoqligi, kirishga qarshiligi, titiluvchanligi, cho'ziluvchanligi, dazmollanuvchanligi, ho'llash-dazmollash rejimlari uning tola tarkibiga bog'liq bo'ladi. Masalan, agar lavsanli jun gazlamalar juda ho'llangan latta qo'yib, 200 S gacha qizdirilgan dazmol bilan dazmollansa, ayrim joylari kirishadi va ketmaydigan doglar paydo bo'ladi. Kapron gazlamalarga juda qizib ketgan dazmol tegishi bilanoq ular erib ketadi.

Atsetat tolali gazlamalarga juda qizigan dazmol tekkanda ketishi kiyin bo'lgan yaltiroq joylar paydo bo'lishi mumkin.

Gazlamalardagi doglarni ketkazish paytida ham ularning tola tarkibini va shu gazlamani hosil qiladigan tolalarning kimyoviy xossalarini hisobga olish lozim; chunonchi, agar atsetat tolali gazlamalardan doglarni ketkazish uchun atseton ishlatilsa, ketmaydigan boshqa doglar paydo bo'lishi, gazlama qisman yoki butunlay erishi mumkin.

Gazlamalarning tarkibiga kiradigan tolalarning xiliga qarab, barcha gazlamalar bir jinsli va bir jinslimas xillarga bo'linadi.

Bir xil tolalardan iborat gazlamalar, masalan, tarkibida faqat paxta tolasi yoki tabiiy ipak tolasi bo'lgan gazlamalar bir jinsli gazlamalar deyiladi.

Har xil tolalardan iborat gazlamalar, masalan, jun va viskoza tolalar aralashmasidan yoki tandasi viskoza toladan, arkogi paxta tolasidan to'qilgan gazlamalar bir jinslimas gazlamalar deyiladi.

Barcha bir jinslimas gazlamalar quyidagiuch guruxga bo'linadi:

1) aralash-qo'shma gazlamalar - tanda va arkoq iplariga ular yigirulganga qadar turli tolalar qo'shilgan gazlamalar;

2) aralash gazlamalar – tolalarining xili har xil bo'lgan iplar sistemasidan iborat gazlamalar. Odatda, bu guruxdagi gazlamalarda iplar sistemalaridan biri paxta tolasidan, masalan, tandasi paxta tolasidan, arkogi jundan yoki tandasi ipak, arkogi esa paxta tolasidan iborat bo'ladi. Bunday gazlamalar yarim jun, yarim shoyi, yarim zig'ir tolali gazlamalar deb ataladi;

3) aralash-yarim qo'shma gazlamalar – bir sistema iplari bir jinsli iplardan, ikkinchi sistema iplari esa tolalar aralashmasidan iborat gazlamalar. Masalan, gazlama tandasi paxta tolasidan, arkogi esa shtapel viskoza tolalar qo'shilgan paxta tolasidan iborat bo'lishi mumkin.

Gazlamalarning tola tarkibi organoleptik va laboratoriya usullari bilan aniqlanadi. Gazlamalarning tola tarkibi sezgi organlari (ko'rish, sezish, hid bilish organlari) yordamida aniqlanadigan usul organoleptik usul deyiladi. Bu usulda gazlamalarning tola tarkibini quyidagitaribda aniqlash tavsiya qilinadi: gazlamaning tashqi ko'rinishini kuzdan kechirish, gazlamani paypaslab va gijimlab ko'rish, tanda va arkoq iplarining xilini aniqlash, tanda va arkoq iplarini uzib ko'rish, tanda va arkoq iplarini yondirib ko'rish.

Gazlamaning tola tarkibini aniqlashda avvalo uning rangiga, tovlanishiga, qalingiga, zichligiga ahamiyat berish lozim. So'ngra qo'lda gijimlab ko'rish kerak. Buning uchun gazlamani buklab, qo'lda gijimlab ko'rish kerak. Buning uchun gazlamani buklab, qo'ulda qattiq siqish, 30 s dan so'ng bo'shatib, qo'l bilan tekislash kerak. Shunda hosil bo'lgan burmalarning xususiyatiga qarab, gazlamaning tarkibi aniqlanadi. So'ngra tanda va arkoq iplarini ko'zdan kechirish kerak. Shuni esda tutish kerakki, rangi va tovlanishi bilan bir-biridan farq qiladigan har bir ipni aloxida-aloxida sinash kerak. Keyin sinalayotgan iplarning yonishini kuzatish lozim. Gazlamani "ko'mirga aylanguncha" yoqish noto'g'ri natijalarga olib keladi.

Kiyimning eskirishiga asosan unga cho`zuvchi, ezuvchi, bukuvchi kuchlar ishqalanish kuchlari ta`sir etishi sabab bo`ladi. Shuning uchun kiyimning oxori va shaklining yaxshi saqlanishida hamda uzoqqa chidashida gazlamaning turli mexanik ta`sirlarga chidamliligi, ya`ni mexanik xossalari katta rol o`ynaydi. Gazlamaning mexanik xossalariga pishiqligi, qattiqligi, draplanuvchanligi va boshqa xossalari kiradi.

Ma`lum o`lchamdagi gazlama namunasini uzish uchun etarli minimal yuk uzuvchi kuch deb ataladi. Uzuvchi kuchni aniqlash uchun namuna uzish mashinasida uzib ko`riladi. Gazlama namunasi 2 qisqichlar orasiga maxkamlab qo`yiladi. Elektr dvigatel pastki qisqichni yuqoriga va pastga harakatlantiradi, ustki qisqich yukli richag bilan boglangan. Pastki qisqich pastga tushganda namuna cho`zilib, ustki qisqichni pastga suradi. Natijada yukli mayatnikli kuch o`lchagich og`adi.

Cho`zuvchi kuch ta`sirida namuna uzayadi va qisqichlar orasidagi masofa kattalashadi. Strelka uzayish qiymatini uzayish shkalasida ko`rsatadi. Sinash uchun gazlamadan tanda mashinasi bo`yicha uchta namuna va arqoq bo`yicha 5 namuna qirqib olinadi.

Namuna bo`lagining eni 50 mm bo`ladi. Dinamometr qisqichlari orasidagi masofa jun gazlamalar uchun 100 mm, boshqa gazlamalar uchun 200 mm olinadi. Namuna bo`lagining uzunligi qisqichlar orasidagi masofadan 100-150 mm katta olinadi.

Uzuvchi kuch tanda uchun aloxida, arkoq uchun aloxida hisoblanadi. Gazlamalarning uzilishga pishiqligi ularning tola tarkibiga, kalava ip yoki ipning nomeriga, zichligiga, urilish xiliga, pardozlash harakteriga bog`liq. Sintetik tolalardan to`qilgan gazlamalarning uzilishga pishiqligi eng yuqori bo`ladi. Iplar qancha yo`g`on va gazlama qancha zich bo`lsa, u shuncha pishik bo`ladi. Kalta epmali urilishlarni qo`llash ham gazlamalarning pishiqligini oshiradi. Shuning uchun boshqa barcha sharoitlar bir xil bo`lgani xolda polotno urilishda to`qilgan gazlamalar eng pishik bo`ladi. Bosish, appretlash, bug`lash kabi pardozlash

operatsiyalari gazlamaning pishiqligini oshiradi. Oqartirish, bo'yash operatsiyalari gazlamaning pishiqligini birmuncha pasaytiradi.

2.3. Mato chiqarish korsatkichlarini belgilash asoslari

To'qima materiallarining o'lcham xarakteristikalariga qalinligi, eni, massasi, uzunligi kiradi. Gazlamaning qalinligi iplarning yo'g'onligiga, to'qilganlik darajasiga, o'rinish xiliga, gazlama zichligiga va beriladigan pardoziga bog'liq.

GOST da belgilangan eni normasi. Gazlamaning haqiqiy eni gazlamani bevosita o'lchab aniqlanadi. To'pdagi gazlama enini va gazlama namunasini enini aniqlashda amaldagi normalarga (GOST 3822-47) amal qilish lozim. Kalta to'plardagi (50 m dan ortmaydigan) gazlamalar 3 joydan , uzun to'plardagi (50 m dan oshadigan) gazlamalar 5 joydan bir xil uzunlikda, lekin gazlama uchidan 3 metr naridan o'lchanadi.

Gazlama uzunligi. To'quv dastgoxida to'qilayotgan gazlamalar ma'lum uzunlikdan keyin kesiladi. Natijada ma'lum uzunlikdagi gazlama to'plari hosil bo'ladi. To'plarning uzunligi gazlamaning qalinligi va og'irligiga bog'liq. To'qimachilik fabrikalari gazlama to'plarini 10-150 metrgacha qilib ishlab chiqaradi. Gazlama to'pi bir necha bo'lakdak iborat bo'lishi mumkin.

Mato chiqarish ko'rsatkichlarini belgilash matoning tuzilishi va hossalari tatqiq etish muhim o'rin tutadi. Shuning uchun hom ashyodan tortip matoni tayyor bo'lguniga qadar ketga barcha texnik va texnologik harakat, harajatlar mato chiqarish ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi. Matodan namuna olinadi va chiziqli o'lchamlari va massasi bo'yicha ko'rsatkichlarini aniqlashdan avval ular GOST 10681-75 bo'yicha klimatik kamerada me'yoriy sharoitda 24 soat saqlanishi kerak. GOST 3812-72 bilan gazlamalarning tanda va arqoq bo'yicha zichligi aniqlapdi. Gazlamaning zichligi deb, 100 mm namuna uzunligiga to'qri kelgan iplar soniga aytiladi. Namunaning zichligi gazlamaning mustahkamligini aniqlash uchun tayyorlangan namunadan uchtasidan tanda bo'yicha aniqlanadi. To'rttasidan arqoq bo'yicha aniqlanadi. Uzishda tayyorlangan namunalar 50 mm dan bo'ladi.

2.4. To'qimaning texnik ko'rsatkichlari

2-jadval

To'qimani nomlanishi	Artikulni nomeri	To'qimani eni (sm)	Ipni chiziqliy zichligi (teks)			Iplar soni		10 sm. iplar soni	
			T _t	T _a	T _{qir.}	xammasi	Qirg'og'i	R _t	R _a
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Mitkal	36	108	20	20	20	2706	56	248	225

Iplarni qisqarishi (%)		Tig`			O'rinish	Dastgoh nomlanishi	To'qimani y yuza zichligi Gr/m ²	Chiqindi miqdori (%)		pryajani ishlatilinishi 100pog.m.uchun	
								Tanda	arqoq	Tanda	Arqoq
A _t	A _a	Nomer	Fon	Qirg'oq	16	17	18	19	20	21	22
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22
6	8.2	115	2	4	polatno	ATIIP	103 gr	0,74	0,14	5,672	5,429

III. BO'LIM

“MITKAL” MATO TO'QISH UCHUN TEHNIK VA TEHNALOGIK HISOBI.

3.1. To'quv dastgohi turini tanlash

Loyihada tanlangan jarayon va mashinalar ta'minlanishi kerak :

- Yuqori sifatli to'qima ishlab chiqarish ;
- Yuqori mexnat va mashina unumdorligi ;
- Xom ashyodan unumli foydalanish ;

Yuqorida ko'rsatilganlarni amalga oshirish uchun samarali dastgox va mashinalarni tanlash, fan va texnika yutuqlarini qo'llash eng asosiy vazifa hisoblanadi.

To'quv dastgoxini turini tanlash quyidagi ko'rsatkichlarni miqdorini hisoblash orqali amalga oshiriladi.

1. To'qimani bog'lanish koeffitsenti S va uni tolali materiallar bilan to'ldirish koeffitsent Ktk lari aniqlanadi, dastgox t urini tanlanadi.

2. Tig' bo'yicha tandani taxtlash kengligiga qarab dastgox ishchi kengligi tanlanadi, xom to'qima kengligiga javob berishi kerak («Tayyor to'qimalar kengligi» GOSTiga ya'ni davlat standarti talablariga javob berish kerak).

To'qimani bog'lanish koeffitsenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$T_{or} = \frac{T_t + T_a}{2} = \frac{20 + 20}{2} = 20$$

$$S = \frac{P_t \cdot P_a \cdot T_{or}}{F \cdot 1000} = \frac{24,8 \cdot 22,5 \cdot 20}{2 \cdot 1000} = 5,58$$

P_t – to'qimani tanda iplari bo'yicha zichligi – ip/sm da.

P_a – to'qimani arqoq iplari bo'yicha zichligi – ip/sm da.

T_{or} – tanda va arqoq iplarini o'rtacha chiziqli zichligi – teksda.

G – o'rilishi koeffitsenti.

R_t, R_a – tanda va arqoq iplari bo'yicha o'rilishi rapportlari.

T_t ,- tada iplarini arqoq ipini rapport chegarasida kesib utish soni.

1. plotno o'rilish 2/2

t_t -tanda iplarini arqoq kesib o'tishi arqoq iplarini tanda kesib o'tishi rapport 2 ga teng.

1. Polotno o'rilish 2/2

$T_t=2$

$T_a=2$

$R_t=R_a=2$

$t_t=2$

$t_a=2$

$R_t=R_a=2$

4				o
3			o	
2		o		
1	o			

	_____	_____	
--	-------	-------	--

4				
3				
2				
1				
	1	2	3	4

4				
3				
2				
1				
	1	2	3	4

		X		X
	X		X	
		X		X
	X		X	

	1	2	3	4
--	---	---	---	---

$$F = \frac{2 \cdot R_t \cdot I}{t_t + t_c}$$

$$F = \frac{2 \cdot R_t \cdot R_a}{t_t + t_a} = \frac{2 \cdot 2 \cdot 2}{2 + 2} = 2$$

3.To'qimani tolali materiallar bilan to'ldirish koeffitsenti.

A). To'qimani tanda iplari bilan to'ldirish koeffitsenti.

$$K_{TT} = \frac{P_T (R_T \cdot d_t + R_A \cdot d_A)}{R_T \cdot 10} = \frac{24,8 \cdot (2 \cdot 0,173 + 2 \cdot 0,173)}{2 \cdot 10} = 0,858$$

B) To'qimani arqoq iplari bilan to'ldirish koeffitsenti.

$$K_{TA} = \frac{P_A \cdot (R_A \cdot d_A + R_T \cdot d_T)}{R_A \cdot 10} = \frac{22,5 \cdot (2 \cdot 0,173 + 2 \cdot 0,173)}{2 \cdot 10} = 0,778$$

P_T, P_A – to'qimani tanda va arqoq bo'yicha zichligi, ip/sm

R_T, R_A – to'qimani tanda va arqoq bo'yicha rapporti, ip/sm

d_T, d_A – tanda va arqoq ipi diametri, mm.

R_T – o'rilish rapportida tanda ipini to'qimani bir tomonidan ikkinchi tomoniga o'tish soni (1 ta ip oralig'ida)

R_A – o'rilish rapportida arqoq ipini to'qimani bir tomonidan ikkinchi tomoniga o'tish soni (1 ta ip oralig'ida)

Ip diametri ushbu formula bilan aniqlandi.

$$d_T = 0.0316 \cdot S \sqrt{T} = 0.0316 \cdot 1,23 \sqrt{20} = 0,173$$

$$d_A = 0.0316 \cdot S \sqrt{T} = 0.0316 \cdot 1,23 \sqrt{20} = 0,173$$

S– ip turiga bog'lik bo'lgan doimiy koeffitsent.

Masalan: paxta tolalari uchun $-1,23 \div 1,26$

T – ipni chiziqli zichligi, teks.

V) To'qimani tolali materiallar bilan to'ldirish koeffitsenti.

$$K_{To'q} = K_{TT} \cdot K_{TA} = 0,858 \cdot 0,778 = 0,667$$

K_{TT} -to'qimani tanda iplari bilan to'ldirish koeffitsenti.

K_{TA} -to'qimani arqoq iplari bilan to'ldirish koeffitsenti

SHu jumladan jun tolalari uchun.

To'quv dastgoxini ishchi kengligini tanlash.

To'quv dastgoxida to'qilgan xom to'qima kengligi shunday bo'lishi kerakki, pardoqlash jarayonidan so'ng olinadigan davlat standart talablariga javob beradigan «Tayyor to'qima kengligi» ga mos kelishi shart.

3.2. To'quv dastgohini ishchi kengligini tanlash va asoslash.

1. «Tayyor to'qimalar kengligi» davlat standartlari quyidagilardir:

1. paxta tolasidan ishlab chikiladigan to'qimalar uchun GOST–9205–76
2. SHoyi va yarim shoyi to'qimalar uchun GOST – 9202 – 82
3. Jun va yarim junli to'qimalar uchun GOST – 9204 – 76

Xom to'qima kengligi tanlashda dastgox ishchi kengligidan to'liq foydalanish kerak.

Tig' bo'yicha kengligi GOST=80,85,90,95,100,105,110,...130,140,150

1. To'quv dastgoxini ishchi kengligini tanlash

A) Xom to'qimani pardoqlash jarayonida qisqarishi (eni bo'yicha)

$$Uu = \frac{B_x - B_T}{B_x} \cdot 100 = \frac{110 - 108}{110} \cdot 100 = 1,81[\%]$$

B_x – xom to'qima kengligi, sm (fabrika bo'yicha yoki qo'llanma bo'yicha qabul qilinadi).

B_T – tayyor to'qima kengligi, sm (fabrika bo'yicha yoki qo'llanma bo'yicha qabul qilinadi).

Uu – ni fabrika yoki qo'llanma bo'yicha tanlab olish xam mumkin.

2. GOST bo'yicha tayyor to'qima kengligini tanlash, $B_T=130$

3. Pardoqlash jarayonidan so'ng xosil bo'ladigan tayyor to'qima kengligiga mos keladigan xom to'qima kengligini hisoblash.

$$B_x = \frac{B_T}{(1 - 0.01 \cdot Uu)} = \frac{130}{(1 - 0.01 \cdot 1,81)} = 132,396[sm]$$

4. Tandani tig' bo'yicha kengligini hisoblash.

$$B_{TTIG} = \frac{B_x}{(1 - 0.01 \cdot a_A)} = \frac{132,396}{(1 - 0.01 \cdot 8,2)} = 144,2[sm]$$

a_A – to'quv dastgoxida xosil bo'lgan to'qimadagi arqoq ipini kirishishi. (qo'llanmadan yoki quyidagi formuladan hisoblash mumkin).

$$a_A = \frac{B_{tb} - B_x}{B_{t.b.}^1} 100\% = \frac{144,2 - 132,396}{144,2} 100\% = 0,0818$$

$B_{t.b.}^1$ – tandani tig' bo'yicha kengligi, sm

B_x^1 – xom to'qima kengligi, sm

$B_{t.b.}$ – ni xisoblab chiqilgandan so'ng to'quv dastgoxi ishchi kengligiga taqqoslanadi, ya'ni

$$B_{t.b.} < B_{ish} \quad 144,2 < 150.$$

$B_{t.b.}$ bilan B_{ish} orasidagi farq katta bo'lmasligi kerak

3.3. To'qimani taxtlash hisobi.

1. To'qimani o'rtasi va qirg'og'i kengligini hisoblash

A) To'qimani o'rtasi kengligi

$$B_{o'r} = B_x - B_{qir} = 132,396 - 2 = 130,396 \text{ sm}$$

B) To`qima qirg`og`i kengligi

$$B_{qir} = \frac{n_{qir}}{P_{qir}} = \frac{56}{24,8} = 2,25 = 2[sm]$$

n_{qir} – qirg`oq iplari soni

R_{qir} – qirg`oq iplari zichligi ip/sm

Mokili to`quv dastgoxlari uchun qirg`oq zichligi quyidagicha:

Agar $T_{qir} > T_{o`r}$  bo`lsa $R_{qir} = R_{o`r}$  teng bo`ladi

$$T_{qir} = T_{o`r} \quad R_{qir} = 2 R_{o`r}$$

Mokisiz to`quv dastgoxlarida to`qima qirg`og`i zichligi to`qima o`rtasi zichligiga teng, ya`ni  $R_{qir}$ ,  $R_{o`r}$ yoki to`qima qirg`og`i zichligi o`rtasi zichligidan kam bo`ladi, bunga sabab to`qimadagi arqoq zichligi to`qima qirg`og`ida ikki barobar ko`p bo`ladi. (o`rtasiga nisbatan).

STB dastgoxi uchun : $V_{qir} = 3,0$ ga teng

ATPR dastgoxi uchun : $V_{qir} = 1,4$ dan $2,0$ sm ga teng.

2. Tanda iplari soni.

A) To`qima iplari o`rtasi bo`yicha

$$n_{o`r} = B_{o`r} \cdot R_{o`r} = 130,396 \cdot 24,8 = 3233,8 = 3234$$

B) To`qima iplari qirg`oq bo`yicha iplar soni

$$n_{qir} = V_{qir} \cdot P_{qir} = 2 \cdot 24,8 = 49,6 = 50 \text{ ip}$$

V) Umumiy tanda iplari soni

$$n_t = n_{o`r} + n_{qir} = 3234 + 50 = 3284 \text{ ip}$$

3. Tig` hisobi

A) Tig` nomerini aniqlash.

$$N_b = \frac{P_T \cdot (1 - 0,01 \cdot a_l)}{Z_{o`r}} = \frac{24,8 \cdot (1 - 0,01 \cdot 8,2)}{2} = 11,38 \approx 12 [tish / sm]$$

$Z_{o`r}$  – to`qima o`rtasi iplarini tigdan o`tish soni

a_l – to`qimada arqoq ipi kirishishi %

N_b – GOST bo`yicha eng yaqini tanlab olinsin

b) Tig` tishlari soni

$$X = \frac{n_{o`r}}{Z_{o`r}} + \frac{n_{qir}}{Z_{qir}} + X_{zax} = \frac{3234}{2} + \frac{50}{4} = 1629,5 \approx 1630 [dona]$$

Z_{qir} – tig`dan qirg`oq iplarini o`tkazish soni

X_{zax} – zoxiradagi tig` tishlari

Mokili dastgoxlar uchun $X_{zax} = 4 / 12$, mokisiz to`quv dastgoxlarida zoxira tishlar olinmaydi.

4. SHoda hisobi.

